

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI
fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230300-Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O'zbek tili)

Toshkent-2023

Fan/modul kodi 3020-TTG 2.5	Fan/modul turi Tanloq	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024				Jami yuklama (soat)			
			O'quv mashg'ulotlari (soat)							
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Hafalik dars soatlari				Mustaqil ta'lim (soat)			
			Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy laboratoriya				
3	O'zbek tilining tarixiy grammatikasi	5	4	60	20	40	0	0	90	150
	Jami:	5	4	60	20	40	0	0	90	150

1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – "Mumtoz matn grammatikasi" fani bo'yicha tuzilgan mazkur dastur mumtoz adabiy manbalar tilining tarkibi, tuzilishi, ularning bugungi adabiy til me'yorlari asosida tushunilishi va o'rganilishi kabi masalalarni o'z ichiga olishi bilan e'tiborga molik. "Mumtoz matn grammatikasi" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur adabiy til me'yorlari asosida tushunilishi va o'rganilishi kabi masalalarni o'z ichiga olishi bilan e'tiborga molik. Mumtoz matn tarkibini aniqlash talaba adabiy manbaning lug'at boyligi – leksikasini o'zlashtiradi, qadimiy matn tuzilishini struktur tahlil qilish bilan esa matnning morfologik-sintaktik qurilishi haqida bir butun tasavvurga ega bo'ladi. Mazkur yondashuvning dolzarbligi shundaki, yillar davomida filologiyaning yordamchi tarmog'i yoki adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi deb qarab kelingan matnshunoslik sohasi mumtoz matn grammatikasi tadqiqiga dahl etib, o'zining bazaviy resursi doirasida mustaqil fan sifatidagi imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, mumtoz matn tili bilan zamonaviy o'zbek tilining farqli va musharak jihatlarini anglash mumtoz matnlarni hech qiynalmasdan bugungi adabiy til me'yorlari asosida tushunish va tushuntirish malakasini shakllantiradi.

Fanning vazifasi – talabalarda matnshunoslikning tushunchaviy apparati, mumtoz va zamonaviy matn qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish asoslari, tayanch nusxani belgilash tamoyillari, mukammal nusxani yaratish usullari, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladigan qarashlar tizimini yaratish kabi masalalarni kompleks tadqiq etish.

Mumtoz adabiy matnlarning leksik boyligi, sintaktik qurilishi haqida nazariy bilim berish, badiiy voqelik bilan ijtimoiy voqelikning o'zaro aloqadorlik munosabatlarini matn mazmunidan uzilmagan holda o'rganish malakasini, shuningdek, mumtoz adabiyotda nazm va nasr tilining o'ziga xos xususiyatlarini farqlay bilish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar – bakalavr talabalarda mumtoz o'zbek adabiyotining asiyat yozuvini savodli o'qish va tushunish uchun zamin tayyorlash, ijtimoiy qadriyatlar bilan badiiy matn o'rtasidagi o'zaro ta'sir hodisalarini o'rganish, mumtoz adabiy

manbalarga lug'at tuzish va so'zlarni til qatlamlariga ko'ra ajratish, mumtoz adabiy matnning Grammatik tahlil qilish va zamonaviy o'zbek tilida nasrni bayon qilish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- Matnshunoslik ilmining ikki qanoti bo'lgan adabiyotshunoslik va matnshunoslikning nazariy-amaliy masalalari yuzasidan muayyan xabardorlik bilan ta'minlaydigan bilimlarga;
- mumtoz adabiy manbani tarixiy ildizi, matn tuzilishi va anganishi bilan aloqadorlikda o'rganish, mumtoz matnning grammatik tahlil etish ko'nikmalariga;
- fan muammolarini tarixiylik va zamonaviylik nuqtai nazaridan farqlash, mumtoz adabiy manbalar tilini tushunish va tushuntirish muammosiga bir butun hodisa sifatida qarash, mumtoz adabiyot tili bo'yicha egallangan bilim va hosil bo'lgan ixtisoslik tajribasini ma'naviy merosimizni ommalashtirish yo'lida amaliyotga tadbiq etish malakasiga ega bo'lish lozim.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Talaba bilishi kerak:

- matnshunoslikda va tilshunoslikdagi matn tushunchasining farqi, arab yozuvi tarixi, matnshunoslikning dolzarb muammolari, tabdil, transkripsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushunishda lug'at ilmining o'rni **haqida bilimlarga;**
- Nasta'liq xatidagi toshbosma va qo'lyozma kitoblarni o'qiy olish, XX asr boshi isloh qilingan alifboni o'qib tushunish, nazmni nasrni bayon qilish, mumtoz matnning muxtasar va to'la sharhlash, adabiy manbani tasniflash **ko'nikmalariga;**
- Eski o'zbek yozuvini, qo'lyozma kitobda unvonning ahamiyatini, mumtoz matnda ilmiy ko'rsatkich imkoniyatini, qo'lyozma turlarini, kataloglardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida **malakaga ega bo'lishi lozim.**

3. O'QUV FANI O'QITILISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- taqdimotlar tayyorlash;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

4. TALABALAR KREDITLARINI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalar bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy

ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.
Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

Izoh: *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalar bilimni baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr olaydi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

3-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	O'zbek tili tarixiy grammatikasi manbalari	Fanning maqsadi va filologik tizimdagi o'rni. Matnshunoslikning faoliyat turlari. Manbashunoslik va matnshunoslik malakasi.	2
2	"Qisasi Rabg'uziy" asari va uning leksikasi	"Qisasi Rabg'uziy" lug'at tarkibining mavzuiy guruhlari, Asar leksikasining qadimgi turkiy manbalar va qoraxoniylar davri yodnomalari tiliga munosabati.	2
3	Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi va undagi fonetik qatlam	Arab yozuvining eski o'zbek yozuvi paydo bo'lishida tutgan o'rni. Arab	4

4	Mumtoz lug'at manbalari	Yozuvdagi manbalar tadqiqi. Arab yozuvi asosidagi turkiy alifbo. Mumtoz tilga oid so'zlarni jamlagan manbalar: Tole' Hiraviyning "Badoye' ul-lug'ot", Alisher Navoiy asarlariga ishlangan lug'atlar: Mirzo Mahdixonning "Sanglo'x", "Tazyil" va "Xulosai Abbosiy" lug'ati, "Abushqa" hamda Shayx Sulaymon afandi Buxoriyning "Lug'ati Chig'atoyi va turkiyi Usmoniyy", Abbosqulixon Sartipning "Ruscha-forscha-turkiycha so'zlar lug'ati".	2
5	Alisher Navoiy asarlarida til va nutq masalalari	"Muhokamatul lug'atayn" asarida turkiy va forsiy til qiyosi, asarda qadim turkiy so'zlar va ularning hozirgi kundagi iste'moli, asarda singarmonizm hodisasi, unillar va sinonimik qator tavsifi.	2
6	Adabiy til taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining o'rni va ahamiyati.	Bobur asarlarining til xususiyatlari. Bobur asarlaridagi badiiy til vositalari. Boburmomada forsch va o'zbekcha sifat darajalari va ularning tahlili. "Boburnoma"dagi laqab, nisba va taxalluslarning leksik-semantik tasnifi.	2
7	Mumtoz matnlarda qadim turkiy so'zlar	"Devonu lug'otit turk", "Hibatul haqoyiq", "Qutadg'u bilig" hamda "Muhabbatnoma" asarlarida turkiy so'zlar, o'z va o'zlashma qatlam, turkiy so'zlar klassifikatsiyasi.	2
8	Mumtoz adabiy matnlarda arabiy va forsiy o'zlashmalar	Navoiy va Ogahiy adabiy merosida arabcha va forsch so'zlar nisbati, Sifat so'z turkumiga oid so'zlarning qo'llanish o'rinlari, mumtoz matnlarda aniqlik artikliini olgan so'zlar talaffuzi.	2
9	Nazm va nasr tili	Nazm, qat'iy tizim va intizom, nazm ta'rifi. Qudoma ibn Ja'far, nasr, epik janr, voqealar tizimi, Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida nazm va nasr uyg'unligi.	2
Jami:			20 s.

2. Seminar mashg'ulotlar

№	Seminar mashg'ulotlar	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Mumtoz matn bilan ishlash amaliyoti	Mumtoz matn bilan ishlashda lisoniy birlikliklarning o'rni, mumtoz matn amaliyotida tilshunoslik ilmining ahamiyati, matnshunoslikning faoliyat turlari, manbashunoslik va matnshunoslik malakasi. Adabiy til rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan bog'liqligi. Adabiy til turlari. Uslublar taraqqiyoti. Adabiy til rivojining mumtoz matn taraqqiyotida tutgan o'rni	2
2	"Qisasi arxatizmlar va asar leksikasi Rabg'uziy"dagi	Matnshunoslikda arab yozuvining tutgan o'rni. Arab yozuvidagi manbalarning matnshunoslikdagi tadqiqi. Arab yozuvi asosidagi turkiy alifbo.	2
3	Arab alifbosining o'zbek tili grafikasidagi o'rni. Arab alifbosi asosida eski o'zbek yozuvining shakllanishi va evolyutsiyasi masalasi	Adabiy manbalar matnshunosligida ixtisoslik malakasi. Ma'rifat asoslaridan xabardorlik masalasi. Mumtoz matni tahqiq qilish qoidalari.	4
4	Mumtoz lug'at manbalarida kelgan turkiy so'zlar tadqiqi va ularning fonetik xususiyatlari.	Turkiy tilga oid so'zlarni jamlagan lug'at va manbalar: Tole' Hiraviyning "Badoye' ul-lug'ot", Alisher Navoiy asarlariga ishlangan lug'atlar: Mirzo Mahdixonning "Sang'lox", "Tazyil" va "Xulosai Abbosiy" lug'ati, "Abushtqa" hamda Shayx Sulaymon afandi Buxoriyning "Lug'ati Chig'atoyi va turkiyi Usmoniy", Abbosqulixon Sartipning "Ruscha-forscha-turkiycha so'zlar lug'ati"dagi turkiy so'zlarni aniqlash usul va yo'llari.	2
5	"Muhokamat-ul-lug'atayn" asarining tishunoslikdagi o'rni	"Muhokamatul lug'atayn" asarida muallif tomonidan keltirilgan fe'llar tahlili va tadqiqi, "Muhokamat ul-	2

	lug'atayn"dagi ma'nodosh va shakldosh so'zlar, asarda qadim turkiy so'zlar va ularning hozirgi kundagi istiq'moli, asarda singarmonizm hodisasi, unillar va sinonimik qator tavsifi.		
6	"Boburnoma"da turli sohaga oid so'zlarning ishlatilishi	Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining turkiy til rivojida tutgan o'rni, Bobur asarlaridagi badiiy til vositalari, "Boburnoma"da forscha va o'zbekcha sifat darajalari va ularning tahlili, "Boburnoma"dagi laqab, nisba va taxalluslarning leksik-semantik tasnifi, "Boburnoma"dagi mo'g'ulcha o'zlashmalar.	2
7	"Qutadg'u bilig" va "Hibatul-haqoyiq" va "Devonu lug'otit turk" asarlarining til xususiyatlari va ilmiy o'rganilishi	"Hibatul haqoyiq", "Qutadg'u bilig" asarlarida turkiy so'zlar, o'z va o'zlashma qatlam, turkiy so'zlar asosida so'z turkumlarini ajratish.	2
8	Mumtoz adabiy matnlarda o'zlashma so'zlar va ularning ahamiyati	Mumtoz davr adiblari adabiy merosida arabcha va forscha so'zlar, so'z turkumlariga oid so'zlarning qo'llanish doirasi, mumtoz matnlarda arabiy o'zlashmalar talaffuzi.	2
9	Nazmiy va nasriy asarlarning lisoniy xususiyatlari. Nazmiy va nasriy asarlarda til va uslub masalasi	Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida nazm va nasr uyg'unligi. Nazmiy asarlarning til xususiyatlari, "Firdavsul iqbol asarida qadim turkiy so'zlarning tutgan o'rni.	2
10	Mumtoz manbalarda turli dialektlarga oid qarashlar	Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillarga oid qarashlari, XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar	2
11	Mumtoz manbalarda sohaviy atamalarning aks ettirilishi	"Devoni lug'otit turk"da tilga olingan joy nomlari, etnonimlar, ya'ni turli xalq, elat, qabila, urug' nomlari, antroponimlar, ya'ni kishi	4

	ismlari, geografik atamalar, o'simlik hamda hayvon nomlari, so'zlarning fonetik va grammatik tuzilishiga doir fikrlar.	2
12	Mumtoz matnlarda so'zlarning o'zaro bog'lanishi.	4
13	Mumtoz adabiy matnlarda o'zlashma so'zlar va ularning ahamiyati	4
14	Muqimiy asarlarining leksik xususiyatlari	4
15	Furqat asarlarining filologik taqqiqi	4
	Jami:	40 s.

3. Mustaqil ta'lim ishlari

Nº	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	"Devonu lug'otit turk" dagi etnonimlar	Turkiy xalqlar, maqolshunoslik, semantika, grammatik me'yorlar, til va matn tarixi uyg'unligi, etnografiya, tilning rivojlanishi, til qurumi, asardagi tarixiy so'zlar fonetika va morfologiyasi.	6
2	"Devonu lug'otit turk" dagi harakat fe'llari	Devonu lug'otit turk" da alifbo masalasi, undoshlar tizimi, "Devonu lug'otit turk" da morfologik tizimlar, fe'llar va ularning ifodalinishi, fe'l yasovchi qo'shimchalar.	6
3	"Qutadg'u bilig" asarining tili va uslubi	"Qutadg'u bilig" asarida til va tasvir masalasi, asar qo'lyozmasiga oid mulohazalar, asar yozilishida uyg'ur va	6

	arab yozuvlari ahamiyati, asarda uslub masalasi.	6
4	"Qutadg'u bilig" dagi asliy sifatlar	6
5	"Hibatul-haqoyiq" da onomastika masalalari	6
6	"Qisasi Rabg'uziy" dagi arxaizmlar	6
7	"Guliston bit-turkiy" matnidagi forsiy izofalar	6
8	"Xusrav va Shirin" dostonidagi o'g'uzcha elementlar	6
9	"Muhabbatnoma" matnidagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi	6
10	"Muhokamatul-lug'atayn" dagi ma'nodosh va shakldosh so'zlar	6

11	“Boburnoma”dagi mo’g’ulcha o’zlashmalar	ma’lumotlar tahlili. Asarda mo’g’ulcha o’zlashmalar ta’rifi va tavsifi, turkiy tilga o’zlashgan mo’g’ulcha atamalar, ba’zi joy nomlarining mo’g’ul tilidan turkiy tilga o’zlashishi masalasi.	6
12	Bobur she’riyatidagi asli turkiy so’zlar	Bobur ijodida arxaik so’zlarning o’rni va ahamiyati, Bobur asarlarida fe’l zamonlari shakli, Bobur asarlari leksikasida ayrim so’zlar talaffuzi, Bobur asarlarida bog’lovchilar imlosi.	6
13	“Shayboniyoma” asaridagi ijtimoiy, siyosiy va harbiy terminlar	“Shayboniyoma” asarida qo’llangan sinonimik so’zlar tavsifi, asarda sifat-terminlar, fe’l-terminlar va qo’shma terminlarning aks ettirilishi.	6
14	“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar	Asardagi toponimlar, gidronimlar, zoonimiya va kishi nomlarining aks etishi.	6
15	Muqimiy asarlaridagi majoziy so’zlar	Muqimiy asarlarida ko’plik shakllari imlosi, asarlarda kelishik qo’shimchalarining qo’llanishi, Muqimiy asarlarida affiksalar va olmoshlarining ishlatilishi.	6
		Jami:	90

7. O’QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Сирожиiddинов Ш., Умарова С. Ўзбек магншунослиги кирралари. – Т.: Академнashr, 2015.
2. Эркинов А. Магншуносликка кириш. Т.: O’qituvchi, 1997.
3. Абдурахмонов Г., Шукуров Ш., Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. – 527 б.
4. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G’oziyev A. Eski o’zbek tili va yozuvi praktikumi. T. 2006.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Т., 1985.
2. Исхоков Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т., Ўқитувчи, 1995.
3. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. - Т., Ўқитувчи, 1989.
4. Хусанов Н. XII аср ўзбек алабий ёлгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари.
5. Marsel Erdal. A grammar of old turkic. – Brill, 2004. – 583 б.
6. Абдурахмонов Г., Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1986.

7. Azimov I., Rahmatov N. Qadimgi turkiy til. O’quv-metodik qo’llanma. – Toshkent, 2005. – 135 б.
8. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 2019. – 126 б.
8. Абдурахмонов Г., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси.
9. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 327 б.
10. Невматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 6-8.
10. Невматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 6-8.
11. Абдурахмонов Г. Тарихий синтаксис. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 73-93.
12. Xudoyberdiyev J. Mahmud Koshg’ariy hayoti va “Devonu lug’aiti turk” bo’yiicha yaratilgan asarlar ko’rsatkichi. – Toshkent, 2011. – B. 160.
13. Xasanov X. Махмуд Кошгарий. – Тошкент, 1969. – Б. 85.

8. O’QUV DASTURI HAQIDA MA’LUMOT

O’quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202__ yil “__” “__” dagi “__” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
“Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent R.Zohidov
Tuzuvchilar: R.Zohidov _____ imzo P. Izzatillayev _____ imzo
“Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi dots.v.b, PhD. Taqrizchilar: ToshDO‘TAU, _____ kafedrasi professor v.b., filologiya fanlari doktori; Muhiddinova B.M. Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti _____ kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (PhD).